

## **“O‘ZMETKOMBINAT” AJDA MONOPOLIYAGA QARSHI KOMPLAENS TIZIMI**

Bugungi kunda bozor iqtisodiyotida raqobatni ta'minlash har bir tashkilot va korxonaga uchun muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Korxonalarining bozordagi o'rnini mustahkamlash va ularning qonunbuzarliklardan himoyalashini ta'minlash uchun maxsus monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etilmoqda. Ushbu tizim nafaqat qonunchilikka rioya qilish, balki bozorda adolatli raqobat muhitini saqlab qolish uchun asosiy mexanizmdir.

Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi – korxonada raqobat to'g'risidagi qonunchilikka rioya etilishini ta'minlaydigan va qonunbuzarlik xavfini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi. Bu tizim korxonaning ichki faoliyatiga integratsiyalashtirilib, uning barcha jarayonlariga taalluqli bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-iyuldagi “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-6019-sonli Farmoniga hamda Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-martdagi “Monopoliyaga qarshi komplaens tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 114-son qaroriga muvofiq “O'zmetkombinat” AJning Komplaens-xizmatida Monopoliyaga qarshi kurashish sohasida mas'ul komplaens menjeri tayinlangan.

Monopoliyaga qarshi komplaens sohasi bo'yicha qo'yidagi vazifalar ustivor etib belgilandi:

- Korxonaning barcha ichki va tashqi jarayonlarini raqobat qonunchiligi talablariga muvofiqlashtirish;
- Monopoliyaga qarshi qonunbuzarliklarning oldini olish va ehtimoliy jarimalardan saqlanish;
- Korxonaning bozordagi ishonchli imidjini saqlab qolish;
- Korxonaga resurslaridan adolatli va samarali foydalanish.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning turli sohalarida raqobatni himoya qilishga alohida e'tibor qaratilmoqda. “Raqobat to'g'risida”gi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar bilan korxonalarda adolatli raqobatni ta'minlash choralari ko'zda tutilgan.

Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi joriy etilgan korxonalar nafaqat davlat organlari bilan munosabatlarda muvaffaqiyatga erishadi, balki o'z faoliyatini samarali boshqarishga ham erishadi.

Monopoliyaga qarshi komplaens tizimi – bu zamonaviy biznesda muvaffaqiyatga erishishning muhim mexanizmi. Korxonalar bu tizimni joriy etish orqali nafaqat qonunchilikka rioya qiladi, balki bozorda barqaror raqobatbardoshlikni saqlab qoladi. “O'zmetkombinat” AJ kabi yirik tashkilotlar uchun bu kabi tizimlar korporativ faoliyatning uzviy qismiga aylanmoqda.

Davomiy ravishda komplaens tizimini rivojlantirish orqali korxonalar faoliyatida yangi bosqichga chiqishi ko'zda tutilmoqda.

**“O'zmetkombinat” AJ**

**Boshqaruv raisining o'rinbosari –**

**Tijorat direktori**

**I.V. Pitrenko**